

ENAXON SIDDIQOVA SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN ANTONIMLARNING USLUBIY VAZIFALARI

Dilnavoz Abdurahimova

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotation:

In order to ensure poetic individuality in the language of the artistic work, the creators use all language units effectively. In particular, antonyms are considered the main tool in fully revealing the purpose of writers and poets. This article examines the features of the use of antonyms in Enakhon Siddikova's poetry.

Key words: antonym, contrast, antithesis, contrasting images, lexical antonymy, phraseological antonymy, lexical-phraseological antonymy.

Annotatsiya: Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan unumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar adiblar, shoirlar maqsadini tugal ochib berishda asosiy vosita sanaladi. Ushbu maqolada antonimlarning Enaxon Siddiqova she'riyatida qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: antonim, tazod, antiteza, kontrastli obrazlar, leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimiya.

Аннотация:

Для обеспечения поэтической индивидуальности в языке художественного произведения создатели эффективно используют все языковые единицы. В частности, антонимы считаются основным инструментом в полном раскрытии предназначения писателей и поэтов. В данной статье рассматриваются особенности употребления антонимов в поэзии Энахон Сиддиковой.

Ключевые слова: антоним, контраст, антитеза, контрастные образы, лексическая антонимия, фразеологическая антонимия, лексико-фразеологическая антонимия.

Antonimiya soʻz juftligida muayyan leksik maʼnoning oʻzaro qarama-qarshi boʻlishidir. Yaʼni oʻzaro qarama-qarshi maʼnoga ega soʻz juftligidagi antonim deyiladi”¹. Tilda antonim soʻzlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, taʼsirchanligini taʼminlashda qulay vositalardan biridir. Mumtoz adabiyotda ham bu vosita koʻp qoʻllanilgan boʻlib, u tazod deb yuritiladi. “Shoir uchun juda zarur boʻlgan sanpatlardan biri tazoddir. Bu sanʼat yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takafu deb ham ataladi. Bu sanʼatda, badiiyshunoslarning aytishicha, zid maʼnoli soʻzlardan foydalaniladi” [3. – B.64]. Yevropa filologik anʼanasida bu sanʼat “antiteza” deb yuritiladi. “Antiteza-badiiy asarda bir-biriga zid maʼnoli soʻzlarni yonma-yon qoʻllash, qarshilantirish sanʼatidir”². Shoir va yozuvchilar voqelikni narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlaridagi farqli tomonlarini koʻrsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qoʻyib tasvirlashda kuchli stilistik vosita antonimlardan oʻrinli foydalanadi. Enaxon Siddiqova asarlarida ham antonimlar juda koʻp qoʻllangan boʻlib, ular xilma-xil stilistik ottenkalarni ifodalaydi. Shoir antonimlardan turli voqea hodisa, predmetlarning xarakteristikasini berishda, lirik qahramonning xarakter xususiyatlarini, uning ichki his-tuygʻularini hamda qahramonning fakt va voqeliklarini ifodalashda foydalangan. Shoir sheʼrlarida achchiq va shirin, vafo va jafo, yer-koʻk, issiq-sovuq, yaxshi-yomon, doʻst-dushman va boshqa shu kabi antonimlar uchraydi: Enaxon Siddiqova antonim soʻzlarni qoʻllash bilan kontrastli obrazlar yaratdi va asarlarida ifodalanayotgan dramatismni kuchaytirishga erishdi:

Yupatadi yigʻlasam, kulsam,
U ham mendek gʻamgin, horgʻinroq,
Yiqilsam turgizar shu hassam,
Bolamdan mehribon, yaqinroq.

(“Soʻz ustidagi dunyo”)

Enaxon Siddiqova soʻzlarni qoʻllashdagi yana bir mahorati shundaki, shoir ijobiy narsalarni, hayotbaxsh ideallar tasvirida yorqin boʻyoqlarda tasvirlaydi. Faqat zarurat tugʻilgandagina, vaziyat taqozosi bilan antonimlarni

¹ Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.

² Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.

qo‘llaydi, hayotning butun chuqurligi, murakkabligini, ziddiyatlarni aniq, konkret, kontrastli obrazlar asosida ochib berishga harakat qiladi. U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ikki xil antonimiya ko‘rsatilgan: I. Lug‘aviy antonimiya – lug‘aviy birliklarni o‘zaro antonim bo‘lishi: novcha-pakana, saxiy-baxil, bo‘shang-olg‘ir kabi.³

O‘qlar bor, tig‘lar bor, raqib yo‘q dangal,

Goho o‘zing bilan tushasan jangga.

Qalbing tungga berib chiqasan tongga,

Hayot topmoqliklar qadar degani

II. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o‘zaro antonim bo‘lishi. Bu juda kam uchraydi: -dan -ga (Uyga-uydan) kabi. Morfemalar antonimiyasi, asosan, leksema yasovchilarga to‘g‘ri keladi: -li, ba- (bo-), -siz, be-, no- kabi.

Nomard qadrin ur-sur bilan ko‘tarar,

Mardlar elni g‘urur bilan ko‘tarar,

Yuragida surur bilan ko‘tarar,

O‘zbeginning bolalari birlashsin.

(“So‘z ustidagi dunyo”)

Darslikda lug‘aviy antonimiyaning ham uch xil leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik- frazeologik antonimiya kabi turlari aytib o‘tilgan. Bu uchala turdagi lug‘aviy antonimiya shoir she‘rlarida uchraydi. Masalan, leksik antonimiya eng ko‘p qo‘llanlib, shoir issiq-sovuq, kun-tun, yaxshi-yomon, dard-quvonch, bol-zahar kabi antonimlardan o‘z fikr-g‘oyalarini ochishda unumli foydalangan:

Hayot-qo‘lingdagi bir qultum bol-u

Yoxud qadahdagi zahar degani.

Ichmoqlik qismatdir dard-u quvonchin,

Umr-o‘z qalbingga safar degani.

(“So‘z ustidagi dunyo”)

Enaxon Siddiqova she‘rlarida kontekstual antonimlar ham keng qo‘llangan. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida kontekstual antonimlar haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: Leksik ma‘no bilan leksik qo‘llash orasidagi antonimik munosabat kontekstual

³Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2006. 63-б.

antonimiya deb nomlanishi mumkin. Bunday antonimiya har gal nutqning oʻzida voqe boʻladi, nutqdan tashqarida yoʻqqa chiqadi, koʻpincha individual nutqqa xos boʻladi. Shoir sheʼriyatida ham xuddi shunday oʻziga xos, individual kontekstual antonimlar kontrastli obrazlar hosil qiladi. Bu turdagi antonimlar shoir qalami ostida hayotning, inson tafakkurining, ichki kechinmalarning joʻshqin, murakkab ziddiyatlarga toʻliq koʻrinishlarini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi.

Soʻqir yoʻlovchiday bu yoʻllar aro-

Baxtni adashtirdim, dilni yoʻqotdim.

Topganim bordir-u, yodda yoʻq ammo,

Saratonda juda yomon sovuqotdim. Masalan, quyidagi misralarda saraton soʻzi bilan sovuqotmoq feʼli oʻzaro kontekstual antonimlik hosil qilmoqda. Aslida bu soʻzlar oʻzaro antonim emas. Maʼlum kontekstda qoʻllash sababli bular antonimiya munosabatini hosil qiladi, xolos. Xullas, Enaxon Siddiqova antonimlardan oʻz maqsadini ochib berishda, his-tuygʻularni ifodalashda gʻoyat sanʼatkorona foydalangan.

Adabiyotlar:

1. Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. 63-б.
2. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.
3. Сиддиқова Э. Сўз устидаги дунё. "Адиб" нашриёти. - Тошкент, 2014.
4. Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.